

O'TKIR HOSHIMOV (1941–2013)

MASHAQQATLI SAFAR Kitobxon bilan ikki og'iz suhbat

	Savol	Javob
1.	«Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi...» qaysi kitobining bir bobi shunday so‘zlar bilan boshlanadi.	«Dunyoning ishlari»
2.	Ushbu fikr qaysi asar haqida ekanligini aniqlang. “Chindan ham bu asar – deyarli hasbi-hol qissa. Faqat undagi ba’zi odamlarning ismi o‘zgargan. Aslida, har qanday badiiy asarda ham ma’lum ma’noda muallif tarjimayı holining bir bo‘lagi bo‘ladi. Sababi, yozuvchi o‘z asariga qalbini bag‘ishlaydi”.	«Dunyoning ishlari»
3.	Menga qolsa, badiiy ijodda qandaydir ilohiy jarayon bor, degan bo‘lur edim. Xudo ko‘ngliga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo‘liga qalam olmaydi! Haqiqiy asar shunchaki yozi-lavermaydi, haqiqiy asar farzand kabi tug‘iladi! Ushbu parcha qaysi ijodkorning tarjimayı holidan olingan?	O’ Hoshimov
4.	«Dunyoning ishlari» va «Qalbingga qulq sol», «Nur borki, soya bor» va «Bahor qaytmaydi», «Ikki eshik orasi» va «Tushda kechgan umrlar» asarlari muallifi kim?	O’ Hoshimov
5.	Har kim o‘z ajdodlari bilan faxrlanishga haqli. Mening otabobolarim ham o‘z zamonining mashhur kishilarini bo‘lishgan. bobokalonim – bobomning otalari Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan biri bo‘lganlar. Ushbu parcha qaysi ijodkorning ajdodlari haqida ?	O’tkir Hoshimov
6.	Toshkentda, «Xalqlar do‘stligi» saroyi (hozirgi «Istiqlol» san’at saroyi) yaqinida qadimiy obida – madrasa bor. Bu dargohda o‘tgan asr boshlarida	Obida bir yarim asr avval Abulqosimxon eshon tomonidan bunyod etilgan.

	Abdulla Qodiriy, Munavvarqori, G'ulom Zafariy va boshqa ulug' zotlar ta'lim olgan. Bu madras ani kim qurdirgan qachon?	
7.	Abulqosimxon eshon qaysi tillarni mukammal bilgan?	o'zbek tilidan tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan.
8.	O'tkir Hoshimovning otasi haqida ma'lumot bering.	Otasi Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo'lib qishloqqa – Do'mbirobodga ko'chib kelgan, xarobagina kulgada tirikchilik qila boshlagan. Biroq bu yerda ham tazyiqlar to'xtamagan. Dehqonchilik qilgan. To'qimachilik kombinatida, so'ng shu kombinatga qarashli bolalar oromgohida ishlagan.
9.	... Eski kitoblarni ham, zamonaviy adabiyot va gazetalarni ham o'qib borar, o'ta haqparast, nohaqlikni ko'rsa yonib ketar edi. O'tkir Hoshimov ushbu fikrni kim haqida aytgan?	Ataullo Hoshimov
10.	O'tkir Hoshimov onasi kim unga qanday ta'rif bergen?	Onam – Hakima Hoshimova esa otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi.
11.	Ko'chada biron bola yig'lab o'tirgan bo'lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biron sabab bilan biz bolalarni koyisa, o'zi ham yig'lab yuborar, o'sha zahoti ko'nglimizni olishga harakat qilardi. Oyim qancha sodda bo'lsalar, shuncha donishmand ham edilar! Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o'ta oqko'ngil, gina-kuduratni bilmaydigan ayol edi ushbu fikr qaysi asardan olingan?	(«Dunyoning ishlari»da qanday tasvirlangan bo'lsa, onam xuddi shunday edi).
12.	O'tkir Hoshimov qachon va qayerda tavallud topgan?	U 1941-yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Do'mbirobod qishlog'ida tug'ilgan.
13.	Qishloqda, tag'in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug'ilganim taqdirning hadysi bo'lsa ajab emas. Negaki ijodkorda qishloqning qalbi,	O'. Hoshimov

	shaharning aqli bo‘lishi kerak. Qaysi ijodkor tarjimayi holidan olingan?	
14.	«Sen tug‘ilganingda qiyomat qoyim bo‘lgan edi. O‘ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig‘lagan, men – ammamning buzog‘i hayron bo‘lgandim. Urush allaqayoqda bo‘layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi» ushbu gap kim tomonidan aytildi?	O’ Hoshimovning onasi
15.	«Sen tug‘ilganingda qiyomat qoyim bo‘lgan edi. O‘ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig‘lagan, men – ammamning buzog‘i hayron bo‘lgandim. Urush allaqayoqda bo‘layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi».O’. hishimovning qaysi asari qahramoni shu tarzda qabul qiladi?	“Ikki eshik orasi ” romani qahramoni Qora amma
16.	Qora ammaning o‘g’lining ismi kim?	Kimsan
17.	O’. Hoshimovning qaysi asari muhokamasida ba’zi «urush boshlangani haqidagi xabarni bu qadar soddalashtirib tasvirlamaslik kerak edi» degan edi.	« Ikki eshik orasi »
18.	O’tkir Hoshimov oilasi tarkibi qanday edi?	Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il edik.
19.	Oilaning nechanchi farzandi edi?	Uchinchi farzand
20.	Otamning birinchi oilasidan yana bir opam borligi, onam ikkalamiz ko‘p ovorayi sarsonliklardan keyin to‘ng‘ich opamni ham topib olganimiz. Bu haqda qaysi asarda yozilgan?	«Dunyoning ishlari»
21.	Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni chertgan emas. Otani qattiq hurmat qilishni onam o‘rgatgan: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo‘y», «Adangi jahllari yomon, tinch o‘tiringlar», «Adangi ketmoniga tegma», «Adangi soatiga qo‘l tegizma...» kimning tarjimayi holidan olingan?	O’ Hoshimov
22.	O’tkir Hoshimovning birinchi kitobi qachon chiqqan?	Institutning 3 kursda

23.	O' Hoshimovning birinchi kitobining nomi qaysi?	«Po'lat chavandoz»
24.	“Po'lat chavazdoz” asari qaysi janrda yozilgan?	Ocherk
25.	Birinchi badiiy asari qaysi ?	To'rt maktub (hikoya)
26.	“To'rt maktub” asari qachon qaysi gazetada chop etilgan?	1963-yil 17-aprel kuni «Toshkent haqiqati» gazetasida bosilgan (shundan beri har yil 17-aprelni o'zimcha nishonlayman).
27.	“To'rt maktub ” asari asosida qaysi asari qachon yaratilgan?	“Cho'l havosi” Sharq yulduzi jurnalida 4 kursda o'qiydigan paytda chop etilgan.
28.	O'. Hoshimovning qaysi qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yozganidan keyingina o'zimga ishonch paydo bo'ldi. Mendan yozuvchi chiqishi mumkin ekan, degan xayolga bordim.	«Cho'l havosi» qissasi
29.	O'. Hoshimov Toshkent zilzilasidan keyin – 1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishladim. Bu davr men uchun eng hayajonli, eng sermahsul damlar bo'ldi. Bu paytda qaysi asarlarini yaratdi?	«Bahor qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol», «Kvazarlar» qissalari, «Nur borki, soya bor» romani, «Inson sadoqati», «Vijdon dorisi», «To'ylar muborak» sahna asarlari, ko'plab hikoya va hajviyalar, publisistik maqolalar shu yillarda yozilgan.
30.	Bahor qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol», «Kvazarlar» qissalari O' Hoshimov qayerda ishlagan paytda yozilgan	1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishlagan
31.	«Nur borki, soya bor» romani, «Inson sadoqati», «Vijdon dorisi», «To'ylar muborak» sahna asarlari O' Hoshimov qayerda ishlagan paytda yozilgan	1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri bo'lib ishlagan.
32.	Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga taqdim etardim, «birinchi ustozim Oyimga» deb yozib berardim. Deb o'z tarjimayi holida yozgan adib kim ?	O'. Hoshimov
33.	1980-yili onamning to'satdan vafot etishi menga juda og'ir ta'sir qildi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim, degan o'kinchli xayol vujudimni larzaga soldi va qaysi kitobi shu iztirobli tuyg'ular tufayli tug'ildi.	«Dunyoning ishlari»

34.	O'. Hoshimov qancha vaqt davomida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida ishladi?	Uch yil davomida
35.	O'. Hoshimov G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida ishlagan paytda qaysi asarni yozdi?	«Ikki eshik orasi» romanı
36.	1985-yildan 1995-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishladim. 1995-yildan 2005-yilgacha Oliy Majlisda ishlagan ijodkor kim?	O'. Hoshimov
37.	Qaysi ijodkorning asarlari qirq besh yil davomida 60 ga yaqin kitobi turli tillarda ikki milliondan ko‘proq nusxada nashr etildi?	O' Hoshimov
38.	Inson haqida yozishga, xalqimizning sodda-donishmandligi, sabr-qanoatini tasvirlashga urindim. Yaratganga shukr, oilam ijod mashaqqatini chuqur angraydi. Umr yo‘ldoshim – pedagog. Ikki farzandim, besh nabiram bor. Kimning tarjimayi holidan olingan?	O' Hoshimov
39.	Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o‘qigan kitobxon, hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to‘lg‘onib chiqsa. Oradan yillar o‘tib asarni qaytadan qo‘liga olganda tag‘in hayajonlansa... Eng katta orzum – shu” degan ijodkor kim?	O'. Hoshimov
40.	“Ikki eshik orasi” asari	
41.	“Ikki eshik orasi” romanida Qora amma hikoyasi nechanchi bobdan olingan?	II bob
42.	“Ikki eshik orasi ” romanida asli samarqandlik bo‘lgan obraz kim?	Robiya
43.	“Ikki eshik orasi ” romanida kimning Onasi kasal, qiltomoq bo‘lib qolgan. «Pastak shiftli uyda, deraza tagida nuqlu osmonga qarab yotar edi. Rangi sarg‘ayib, ikki chakagi ich-ichiga	Robiya

	kirib ketgan. Ko'zlar qop-qora chiroyli. Uzun-uzun kipriklari gilt etmaydi»	
44.	Quyidagi parcha asardan olingan? “Derazadan allaqanday madrasaning kungurador peshtoqi ko‘rinib turadi. Peshtoq chekkasida sherlar tasvirlangan. Kiyikni quvib ketayotgan dahshatli sherlar...”	“Ikki eshik orasi ” romanidan
45.	“Ikki eshik orasi ” romanida Robiyaning otasining kasbi qanday edi?	O’qituvchi
46.	Men tengi qizlar dadamning maktabiga qatnaydi. Men bormayman, onamga ko‘z-qulqoq bo‘lib o‘tiraman. Dadam ishdan kelib, oyimga qaraydi. Keyin patnisning orqasiga harf yozib, meni o‘qitadi. Ushbu parcha “Ikki eshik orasi ” romanidagi qaysi personaj haqida ekanligini aniqlang.	Robiya
47.	Robiya mакtabга necha yoshga chiqqqanda chiqadi?	9 yosh
48.	Robiya necha yoshida onasidan ayrıldı?	9 yosh
49.	Qiynamang bachamni. Payti kelib o‘qib olar. – Shu gapni aytguncha ham charchab qoladi. Entikib-entikib nafas oladi. – Men-ku qiltomoqman . Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering... qiltomoq so‘zining ma’nosini?	Qizilo’ngachning yara yoki boshqa sabab bilan torayib, ovqat o’tmay qolishidan iborat.
50.	Qiynamang bachamni. Payti kelib o‘qib olar. – Shu gapni aytguncha ham charchab qoladi. Entikib-entikib nafas oladi. – Men-ku qiltomoqman. Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering... ushbu parcha kimning nutqidan olingan?	Robiyaning onasi
51.	... Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig‘ildi. Olacha to‘n kiygan kishilar, oppoq ko‘ylak kiyib, boshiga oq ro‘mol o‘ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko‘ksiga bosgancha	“Ikki eshik orasi ” romanidan

	xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi. Qaysi asardan olingan?	
52.	– Semiz emas, shishib ketgan. Qarama, Robiyajon. Yur. Poyezdga minib, Toshkentga boramiz. deb kim aytgan?	Robiyaning dadasi
53.	Robiya dadasi bilan qayerga ko'chib borishadi?	Toshkentning No'g'ay qishlog'ida
54.	Robiya urush davrida qanday ish bilan shug'ullanadi?	Traktorchi
55.	"Ikki eshik orasi" romanida o'zi yaxshi juvon-ku, jahli tezroq. Achchig'i chiqsa, eriniyam nari oborib, beri opkeladi. Deya ta'riflanadi?	Bashoratxon
56.	Bashoratxon kolxozda qaysi lavozimda ishlaydi?	Brigadir
57.	«jo'xori kabob yeyman» degan obraz kim?	Muzaffaar
58.	Ukam ham juda kajbahs -da! Bolani tashlab keta qol, desam ko'nmaganini ko'rmaysizmi? Yosh bola kun bo'yi dalama-dala yuradi. Og'ziga bir qoshiq obiyovg'on tutadigan onasi bo'lmasa! Peshinda obshi qozondan sho'rva ichadi – shu! Kajbahs so'zining ma'nosi nima?	Muhokama; bahs munozara qiluvchi tixir
59.	Ukam ham juda kajbahs-da! Bolani tashlab keta qol, desam ko'nmaganini ko'rmaysizmi? Yosh bola kun bo'yi dalama-dala yuradi. Og'ziga bir qoshiq obiyovg'on tutadigan onasi bo'lmasa! Peshinda obshi qozondan sho'rva ichadi – shu! Ajratib ko'rsatilgan so'zining ma'nosi nima?	
60.	Kimning odamlari kechasi uyimizga bostirib kelgan odamlar qora ammaning cholini «Ichagingni boshingga salsa qilib ketamiz», – deb qo'rqitgan.	Orifxo'ja boyning
61.	Orifxo'ja boyning odamlariga Qora ammaning choli qanday javob bergan?	«Bir boshga bir o'lim, qo'lingdan kelganini qil»
62.	Komil tabib obrazi qaysi asarlarda uchraydi?	"Ikki eshik orasi" romani , "Urushning so'nggi qurban" hikoyasi

63.	Komil tabibning o'g'li kim?	Olimjon
64.	Urush paytida Robiyaning traktoriga kim suv tashib yurardi?	Olimjon
65.	Hozir Toshkentdagi katta o'qishda o'qiydigan obraz kim?	Olimjon
66.	Bolani bag'rimga bosib o'tiribman. Ichkarida Shomurod xo'rsinadi. O'qtin-o'qtin: «Baribir o'ldiraman!» deb alahlaydi. Muzaffar, qo'li og'riyotgan bo'lsa kerak, ingraydi. Uyqusida cho'chib pinjimga kiradi. Ana, yana seskanib tushdi. Ko'zini ochib, atrofga olazarak qaradi. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?	“Ikki eshik orasi” romani
67.	Juvongina o'lqur noinsof! Bolaning uvoli tutgur, imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo'q edi-ku! Cho'loq bo'lsa devor oshib o'g'rilik qilib bo'lmasgandir! To'rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o'lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o'ylasang bo'lmasmidi, imonfurush! Fikr kim haqida?	Ra'no
68.	Qora amma nechta farzandini tuproqqa topshirgan?	6 ta
69.	Dukur-dukur ot keldi, Ot boshida xat keldi. Xatini o'qib ko'rsam, Voy-voy bilan dod keldi... kim tomonidan aytilgan?	Qora amma
70.	— Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog'mi o'zi? Mayli, oyoq-ko'lsiz bo'lsang ham, birov zam- bilda ko'tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo'lingga termula-termula o'tdi. Endi aqalli meni o'z qo'ling bilan tuproqqa qo'ysang-chi! Yo'q, yig'layotganim yo'q, bolam! Yig'lamayman. Mabodo yig'lasam ham... Yo'q, o'g'lim. Men yig'lasam, sen bezovta bo'lasan. Qora amma kim haqida aytilgan?	Kimsan

71.	Qora ammaning o'g'li kim?	Kimsan
72.	Urushdan avval Robiya kimga unashtirilgan?	Kimsanga
73.	Voy, o'lmasam! Yana o'sha shum xayolga boryapmanmi? Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko'rsatmasin, shahid ketgan bo'lsang, arvojing chirqillaydi. Tirik bo'lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. «Nima qilib qo'yding, shum kampir, senam onamisan, imonsiz », deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o'z yuragini o'zi sug'urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o'z bolasiga o'zi xiyonat qiladi? Ushbu fikr qaysi personaj tomonidan aytilgan?	Qora amma
74.	qovjiragan guldek ko'zimning oldida so'lib boryapti. Yoshi o'ttizga qarab ketyapti, o'g'lim! Sovchilar «qari qiz» deb qadamini uzib qo'yanigayam ancha bo'ldi. Kim haqida aytgan Qora amma	Robiya
75.	Bola sho'rlik qo'lini yomon sindiribди. Chumchuq olaman deb sadaga chiqqan ekan. Bola kim edi?	Muzaffar
76.	Robiya shomurodni qanday deb chaqiradi?	Ada
77.	Bu gap qandoq og'zimdan chiqib ketganini bilmayman, Robiyaning qo'lidagi qiyiqcha sirg'alib yerga tushdi. Rangi o'chib, yuzimga hayratlanib qaradi. Ushbu jumla kim tomonidan aytilgan?	Qora amma
78.	Shomuroddan Robiyaga kimsovchi bo'lib keladi?	Kimsanning onasi Qora amma
79.	Ikki eshik orasi romanida qaysi personajning ruhiy holati "chayon chaqqandek sakrab o'midan turdi. Etagining shamoli tegib lampa o'chib goldi". Berilgan?	Robiya
80.	Yo'q, men yig'lamayman deb ahd qilgan edim. Kimsanimning mozorini topmagunimcha, go'rini o'z ko'zim	Qora amma

	bilan ko'rib, tuprog'ini o'z qo'lim bilan quchoqlamaguncha bir tomchi ham yosh to'kmayman deb qo'ygandim. Hozir bolamning azasiga yig'ib yurgan o'sha yoshlar birdan ko'zimdan tirqirab chiqdi. Ushbu fikr qaysi obraz tomonidan aytilgan?	
81.	Ushbu parcha qaysi asardan olingan? "Bolam! Jon bolam, – dedim iltijo qilib. – Kimsanni sen kutsang, men kutmayapmanmi! O'z bolamning ko'ziga o'zim cho'p solgandan ko'ra, o'lGANIM yaxshimasmi! Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha!"	"Ikki eshik orasi " romanidan bechora chora izlar hikoyasidan
82.	Ikki eshik orasi romanida kimning tasviri berilganini aniqlang? U madori quriganday yonimga cho'kkalab qoldi. Nami ketmagan sochlari yuzimga yoyilib tushdi.	Robiya
83.	Robiya Shomurodni nima deb atar edi?	Ada
84.	«Ovozingni o'chir, pakana!» – deb bir musht ko'tarsa, oyim pildir-pis bo'p qolardi. Fikrni kim aytsa Qora amma holati tasvirlangan?	Bobom deydi Robiya
85.	Robiya urushdan oldin kimga unashadiriladi?	Kimsanga
86.	Qiynamang bachamni. Payti kelib o'qib olar. Men-ku qiltomoqman. Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering... IKki eshik orasi romanida qaysi qahramon kimga qarata aytadi?	Robiyani onasi otasiga aytadi
87.	Qiynamang bachamni. Payti kelib o'qib olar. Men-ku qiltomoqman. Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering... shu paytda Robiya necha yoshda edi?	5 yosh
88.	Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig'ildi. Olacha to'n kiygan kishilar, oppoq ko'ylak kiyib, boshiga oq ro'mol o'ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko'ksiga bosgancha xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi.	Robiyalarning xonadoni Robiya

	Ikki eshik orasi romanida kimning xonadoni tasvirlangan, va kim tomonidan aytilgan?	
89.	G‘ishtin binoga kirib kelaverishda, zinada dumalab yotgan xotinni ko‘rib, qo‘rqib ketdim ushbu jumla qaysi asardan olingan	«Ikki eshik orasi» romanidan
90.	Dadam tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko‘ylak kiyib, chuchvaranusxa bo‘yinbog“ bog‘lab yuradigan odam edi. Po‘rim ko‘ylak kiyadi-yu, noni yo‘q... kimning otasining ta‘rifi berilgan?	Robiyaning otasi
91.	oppoq, uzun yaktak kiygan, ko‘krak cho‘ntagida soat zanjiri yaltirab turgan chol bilan boshlashib chiqdi. Cholning soqol-mo‘ylovi, ko‘zi ustiga qayrilib tushgan qoshi, hatto quloqlarining ichidan chiqib turgan tuklar ham ko‘kimir oppoq edi. U gavdasini g‘oz tutib kelarkan, yo‘l-yo‘lakay ko‘krak cho‘ntagidan uzun zanjirli soatini chiqarib, shiq etib qopqog‘ini ochdi. Ushbu obraz kim?	Orif Oqsoqol
92.	«Ko‘chada qizim qoldi, och o‘tiribdi» desang o’lasanmi ? degan so‘zni kim aytgan?	Orif Oqsoqol
93.	Zamon shunaqa: oltin-kumush kul bo‘lgan, arpa-bug‘doy pul bo‘lgan ushbu jumla qaysi ijodkor tomonidan aytilgan	Robiyaning otasi
94.	Robiya va uning otasi qaysi qishloqqa ko‘chib borishadi?	No‘g‘ayqo‘rg‘onga
95.	Koptokdek yumaloq, past bo‘yli qop-qora xotin chiqdi. Kim edi	Qora amma
96.	past bo‘yli, ammo baquvvat, ixcham soqolli kishi kim edi?	Husan duma
97.	Robiyaning otasi kim?	Muallim Samadov
98.	Robiya asli qayerlik edi?	Samarqandlik
99.	Mehmon otangdan ulug‘ – Xush kepsiz, mehmon! Ushbu jumla kim tomonidan aytilgan?	Husan duma
100.	Ko‘rib turibsan: zamon og‘ir. Qahatchilik bitib, yurt qaddini ko‘tarib	Oqsoqol tomonidan aytilgan (Husan dumaga)

	olguncha sanikida turadi. Keyin ma'limga shunaqangi uy soberaylikki, ko'rgan odamning og'zi ochilib qolsin. Tushundingmi? Kim tomonidan aytilgan?	
101.	O'zimiznikiga oborardim-u, xabaring bor, kelinlarimning chillasi chiqqani yo'q.	Orif oqsoqol
102.	Robiya va uning otasi samarqanddan qachon Toshkentga keladi?	33- yil
103.	kir ko'yak kiygan, qop-qora kallaxum bola kim edi?	Kimsan
104.	Uyalmaysanmi, toyloqdek bo'lib qiz bolani yig'latishga! Go'shingni bir burdadan qilmasam, yurgan ekanman deya Kimsanga kim aytadi?	Qora amma
105.	Robiya Husan dumaning uyida qaysi taomni ichadi?	Atala
106.	Robiya Kimsanlarning uyida borganda Kimsan necha yoshda edi?	11 yoshda
107.	Robiya qaysi mevani qalampirga o'xshatadi?	Qulupnay
108.	Biz ko'chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. Etak tomonda bostirma, molxona. Hovli sathi keng bo'lgani bilan, kaftdek bo'sh joy yo'q. Yarmisiga piyoz sepilgan, yarmi qulupnayzor. Undan narida gultojixo'rozlar ochilib yotibdi. Nok, gilos, behi daraxtlari tartib bilan ekilgan. Kimning uyining tasviri keltirilgan?	Husan duma
109.	Tong otgandan kun botguncha qimirlagan jon borki, bekor turmaydi. Bobom saharlab eshak minib dalaga chiqib ketadi. Oyim molga qaraydi, non yopadi, kir yuvadi, cho'nqayib o'tirib, hovlidagi piyozlarni o'toq qiladi, qulupnay pushtalarini chopadi, tert1 qoradi. Ikki hafta ichida ko'p narsalarni bilib oldim. Bu xonadonda hech nima bekor ketmas ekan. Oyim (qora xotinni shunaqa deyishga	Husan dumaning uyi Robiya aytmoqda

	<p>o‘rgandim) piyoz archsa, «soqolini» tashlab yubormaydi. Yerga suqadi: shunaqa qilsa, yana piyoz o‘sib chiqarkan. Kimsan akam (oyim tayinlagani uchun «aka» deb sizlayman) o‘rik yesa, danagini tashlamaydi. Chaqib mag‘zini olib qo‘yadi. Tandirdan chiqqan kul piyoz pushtasiga sepiladi. G‘unajinning tezagi tappi qilib, devorga yopiladi. Hatto hojatxonadagi kesaklar ham bekorga ketmaydi. Tomorqadagi toklarning tagi kavlanib, ildiziga solinarkan. Kimning uyidagi yumushlar berilgan?</p>	
110.	Tert so'zining ma'nosi nima?	somon, xashak va shu kabi dag‘al ozuqalarga maydalangan kunjara, kepak kabi to'yimli ozuqlalar aralashtirib, qorib tayyorlangan yem.
111.	Husan dumani Robiya nima deb chaqirladi?	Bobo
112.	Husan duma kimga qo‘liga suv solib bo’lgandan so’ng rahmat o‘rniga “Eshakni sug’ormaysanmi ” deb jerkib berdi?	Kimsanga
113.	Ertalab hammasi qaytadan boshlanadi.... Bora-bora men ham uy yumushlariga kirishib ketdim. Hovli supuraman, idish-tovoq yuvaman, oyim kepak aralash undan xamir qilsa, suv isitaman ushbu ishlarni kim bajaradi?	Robiya
114.	«O‘rtoq Samadov, Robiyaxonning savodi allaqachon chiqqan ekan, bemalol uchinchida o‘qiyversa bo‘ladi», – degan edi, dadam siltab tashladi: «Hamma qatori qonuniy o‘qisin!» Shunday qilib, kap-katta qiz ukam tengi bolalar bilan dadam allaqachon o‘rgatgan «Alifbe»ni, hisobni qaytadan o‘rganishga tushdim. Qaysi asardan olingan?	“Ikki eshik orasi” romanidan
115.	Uzun kechalarda Samadov domla va Husan duma qaysi asarni o‘qishadi?	“O’tkan kunlar ” romanini

116.	«Oranglarda ishbilarmon bir odamni dumaga saylamasalaring bo'lmaydi. Oqposhsho hazrati oliylarining farmoni – shu» ushbu fikr kim tomonidan aytildi?	Husan duma
117.	Dumani Husan duma qanday ta'riflaydi?	Duma degani kattakon bir mahkama ekan. Devoriga ko'kragi ochiq xotinlarning surati osib qo'yilgan hayhotday xona.
118.	Husan duma haqida kim aytganm Siz haqiqiy dehqonsiz. Yer ilmini yaxshi bilasiz. Ammo, kechirasiz-ku, savodingiz...	Samadov domla
119.	Oqposhshoyam anoyimas! – Menga o'xshab, qo'l ko'tar desa oyog'iniyam qo'shib ko'taradigan soddalarni tanlagan-da!.. ushbu fikr qaysi personaj tomonidan aytildi?	Husan duma
120.	Men to'rtinchı, Kimsan akam yettinchi sinfga ko'chganida bir vaqtlar Oqsoqol buva bizni aravada No'g'ayqo'rg'onga olib kelayotganida va'da qilgan...	To'kinchilik zamoni keldi
121.	Mana, ma'lim, o'lmagan qul, sen jemen je kunlargayam yetdik. Endi sizga o'n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlarni hasharga aytib qo'ydim. Ushbu fikr kim tomonidan aytildi?	Orif oqsoqol
122.	Belida belbog'i bori hasharga kelaveradi. Ushbu fikr kim tomonidan aytildi?	Orif oqsoqol
123.	Agar Husan akani qisib qo'yman bo'lsak, hasharchilarni maktab qurishga solsakmikin... Bizga-ku uy topilar, maktab kerak. Ushbu fikr kim tomonidan kimga qarata aytgan?	Samadov domla Orif oqsoqolga
124.	Nega qisilarkanman! – Ma'lim to'g'ri aytyaptilar. Eng avval maktab kerak. Raisman deb kerilasan-u, shunga aqling yetmaydi. Kim aytgan	Husan duma Orif oqsoqolga
125.	Maktab qurilishida kim bosh bo'ladi?	Orif oqsoqol
126.	Oqsoqolning ikki norg'ul o'g'li –	Shokir bilan Zokir
127.	Loy otishda kim mohir edi?	Shokir bilan Zokir

128.	Shokir aka bilan Zokir aka traktor haydarkan. Traktorning omochi shunaqa zo‘rmishki, bir yo‘la yigirmata qo‘shho‘kizning o‘rniga yer ag‘dararmish. Kim aytgan edi?	Qora amma
129.	Orif oqsoqolning kelini kim?	Zuhra
130.	Tinch, to‘kin zamonning allaqanday osoyishta zavqi bo‘ladi. O‘sanda bu zavjni tushunmagan ekanman. Boshimizga kulfat yog‘ilganidan keyin qadriga yetdim. O‘sha kecha charchab barvaqt uxbab qopman. Bir mahal yonimda yotgan oyim, «voy o‘lmasam, tinchlikmi», deb sapchib turganidan uyg‘onib ketdim. Qaysi asardan olingan?	«Ikki eshik orasi » romanidan
131.	Husan duma xotiniga qanday murojjaat qiladi?	Pakana
132.	Mabodo bir oy, yarim oy kelmay qolsam, Robiyani sizga topshirdim. Onalik qilasiz deb kimga kim aytadi?	Qora ammaga Samadov domla
133.	Men bo‘lsam hamon yugurib borardim. Nafasim qisilib qolgan, tomog‘im achishar, ammo to‘xtamasdim. Oxiri toshgami, kesakkami qoqilib yuztuban yiqlib tushdim. Og‘zimga tuproq kirib yig‘lab yubordim. Bir mahal kimdir yelkamni siladi.qaysi asardan olingan?	«Ikki eshik orasi » romanidan
134.	«hali-zamon dadang keladi» «Robiyani ehtiyyot qiling» qaysi asardan olingan?	«Ikki eshik orasi » romanidan
135.	«Bolsheviklik vijdonimni o‘rtaga qo‘yib, kafolat beramanki, bitta-yarimta imonsiz ma’limga tuhmat qilgan» kim aytgan?	Orif oqsoqol
136.	Samadov domlaning aybi nima?	Aybi shumishki, darsni programma bo‘yicha o‘tmasmish. «Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan», – deb maqtaganmish.

		Bolalarga Bobur poshshoning she'rlarini o'qitgan mish. Rayondan beruxsat maktab qurban mish...
137.	Samadov domlaning ayblashda kimning qo'li bor?	Xo'jaqulovning
138.	Ma'lum Samarqandda ishlab yurganida Xo'jaqulov degan tergovchi bilan qattiq to'qnashadi. Temir yo'lida katta o'g'rilik ochiladi. Tergovchi ishni yopti-yopti qilib yubormoqchi bo'lganida, stansiyada ishlaydigan qo'shnisi ma'limga chiqib arz qiladi. Ma'lum avval gazetaga, keyin obkomga xat yozadi. Gunohkor jazosini oladi. Tergovchi ariza berib ishdan bo'shaydi. Farg'onagami, Qo'qongami ketadi. Aylanib aylanib Toshkentga kelib qoladi. Ana o'sha Xo'jaqulov hozir prokuror. Qaysi asardan olingan?	«Ikki eshik orasi » romanidan
139.	O'qishingga boraver. Ma'lumni aybi yo'q. Haq joyida qaror topmaguncha qo'ymayman. Meni kim deb yuribdi Xo'jaqulovlar! Kim aytgan?	Orif oqsoqol
140.	«Otang xalq dushmani ekan. Sen sovet maktabida o'qishni xohlamaganing uchun ataylab o'qishga kechikib kirgansan!» «Robiyaning savodi allaqachon chiqqan ekan,bir yo'la uchinchi sinfga boraversa bo'ladi» degan o'qituvchi kim ?	Xotin o'qituvchi
141.	«Ikki eshik orasi» romani qachon yozilgan	1986-yilda
142.	Qaysi romanda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda,tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi; uning g'ayriinsoniy mohiyatiga urg'u beradi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-onas qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani	«Ikki eshik orasi » romanida

	romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi.	
143.	Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman qaysi	«Ikki eshik orasi » romani
144.	Qaysi roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Undagi voqea-hodisalar bayonida qatnashgan to‘qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog‘laydi.	«Ikki eshik orasi » romani
145.	Orif o'qsoqolga ta'rif bering?	Orif oqsoqol obrazi romanga ko‘rk bag‘ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro‘-e’tibori, eng og‘ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuch topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand,tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi.
146.	Kim mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi mujassam topgan. U boshiga tushgan barcha ko‘rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘zida yashashga kuch-qudrat topadi.	Qora amma
147.	Shomurodning xotini kim?	Ra’no
148.	Ra’mno kim bilan yurib ketadi?	Umar zakunchi
149.	«Juvongina o‘lgur, noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q edi-ku! cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘lmagandir! To‘rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush!» kim aytgan	Qora amma Ra’no haqida
150.	Asarda Ra’noring taqdiri qanday bo’ladi?	badbaxtlikka borib taqaladi, u baxtsiz bo’ladi.

151.	Qora amma nechta farzandini yerga berib, bittagina Kimsanini yer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi	olti
152.	«Yuragim uvishib, boshim xam bo'lib qoldi. Men noinsof, men yuzi qaro qaysi yuz bilan?.. Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni! Kim aytgan?	Qora amma
153.	U Kimsanga ko'ngil qo'ydi. Kimsan va uning sevgisi bir guli ochilmay so'ldi. Yurda urush boshlangach, urushga ketgan sevgilisi qaytmadi. Kim haqida	Robiya
154.	«Nima deyotganini o'zi biladimi oyim? Axir... Kimsan akam mening qaylig'im bo'lsa, oyimning o'g'li-ku! Kimsan akam hammadan ko'ra oyimga yaqin-ku. Nima jin urdi?» kim aytgan	Robiya
155.		